

SUV TANQISLIGI - GLOBAL EKOLOGIK MUAMMO

Xolmatova Surayyo Valijon qizi

Farg‘ona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda butun dunyo uchun global ekologik muammoga aylanib borayotgan suv tanqisligi muammosi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, suv tanqisligining kelib chiqish sabablari, oqibatlari va oldini olish chora-tadbirlari haqida ham fikrlar keltirilgan. Maqolaning taqdim etilishidan asosiy maqsad suv tanqisligi muammosining oldini olish. Bugungi kundagi mutaxassislar tomonidan berilayotgan takliflarni amaliyotga tadbiq etish bilan ko‘zlangan natijaga erishish. Suv resurslaridan oqilona foydalangan xolda barqaror rivojlanishga erishish.

Kalit so‘zlar: suv, resurs, sanoat, suv tanqisligi, globallashuv, oqova suvlar , barqaror rivojlanish.

KIRISH

Suv - hayot manbai. Bugungi dunyo globallashuv jarayonida suvning naqadar bebaho boylik ekanligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Olimlar sayyoramizdagi ilk tiriklik mavjudotlari suvda paydo bo‘lgan deb ta’kidlashadi. Mana million yillar bo‘libdiki suv tiriklikning evalyutsiyasiga ham, yer sayyorasining geografik shakliyu, iqlim o‘zgarishiga ham beqiyos ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Suvni hayotimiz manbaiga qiyos etamiz. Bu noyob ne‘matni qadim ajdodlarimiz ham muqaddas bilib, juda qadrlagan. Nafaqat insoniyatning yashash tarzi, balki butun mavjudod olamining yashnatuvchisi va yashartiruvchisi ham suv ekanligi barchamizga kunday ravshan holat.

Sharq va g‘arb olimlari suvni “halovat manbai” yoki “salomatlik malikasi”ga qiyos etganlar. Ularning fikricha, suv badanni pok qilibgina qolmay, terining “ko‘zini” ochadi. Suv ta’siridan bosh miya hushyorligi ortadi, kislorod, havo yaxshi boradi, yurak muskullari yaxshi uradi, qon aylanishi yaxshilanadi.

Afsuski, toza ichimlik suvining behuda nobud bo‘layotganini har qadamda ko‘rganmiz yoki eshitganmiz. Negadir bunga jiddiy e’tibor ham bermaymiz va “menga nima” qilibdi qabilida ish tutamiz. Biroq bu loqaytliklarimiz ertaga qimmatga tushishi haqida o‘ylamaymiz ham.

Shuni ham alohida aytib o‘tish zarurki, bugungi kunda jahon matbuoti chuchuk suv muammosi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolayotgani xususida bong urmoqda. Chuchuk suv zahiralari yildan-yilga kamayib borayotgani, aholining iste’mol suviga nisbatan bo‘lgan talabi kun sayin oshayotgani tufayli global miqiyosda suv tanqislik kelib chiqayotgani haqida yozishmoqa. Xorij matbuotlarida ta’kidlanishicha, bunday holat yuzaga kelishining asosiy sababi, yer yuzining 71 foizini daryo va okean suvlari ishg‘ol qilgan

bo‘lsa-da, undagi chuchuk suv miqdori atigi 2,5 foizni tashkil etar ekan. Umuman olganda, yerdagi suvning jami zahirasi 1385984610 km³.ni tashkil qiladi. Jami suvning 96,5 foizi dengiz yoki okeanlarda bo‘lib, sho‘r suvdan iborat. Chuchuk suvning 70 foizi sayyoramiz qutblarida va tog‘larda joylashgan muz qoplamalarida, 30 foizi esa tuproqdagi nam yoki olish qiyin bo‘lgan yer osti qatlamlarida joylashgan. Yer yuzida mavjud bo‘lgan chuchuk suv zahiralarning bir foizidan insoniyat foydalanishi mumkinligi manbalarda qayd etilgan.

Suv tanqisligi butun dunyo bo‘ylab jiddiy muammo bo‘lib, quyidagi statistik ma’lumotlar bu holatni yanada yoritadi:

2,2 milliard kishi xavfsiz ichimlik suvi xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas;

3,5 milliard kishi xavfsiz sanitariya xizmatlaridan mahrum;

2 milliard kishi asosiy gigiena xizmatlaridan foydalana olmaydi;

140 ta davlat ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda maishiy oqova suvlarning atigi 58 foizi xavfsiz tarzda tozalangan;

2030-yilga borib, suv tanqisligi 700 millionga yaqin odamning ko‘chishi va migratsiyasiga sabab bo‘lishi mumkin;


O‘zbekiston yillik suv iste’molining 90 foizini qishloq xo‘jaligida ishlatadi;

O‘zbekiston Dunyo resurslari instituti (World Resource Institute) tomonidan e’lon qilingan suv stressidan aziyat chekayotgan 164 mamlakat orasida 25-o‘rinni egallaydi

Xolisanillo aytganda, toza ichimlik suvi muammosi mamlakatimizni ham chetlab o‘tgani yo‘q. Respublikamizning ayrim joylarida iste’molga yaroqli bolgan suvning tanqisligi hozirdanoq sezilmoqda. Darvoqe, toza ichimlik suvi haqida gap ketar ekan, bu bebaho ne‘matdan oqilona foydalanib, uni tejash xususida respublikamiz matbuotida dolzarb maqolalar chop etilyapti. Radio, televideniya ham befarq qarab turgani yo‘q. Biroq bu chiqishlar nazarimizda hali yetarlicha emasday yoki yoki uning samarasi behuda ketayotganday tuyuladi.

Butunjahon suv resurslari tashkilotining qilishicha 2030 yilga borib dunyo suvning global tanqisligiga to‘qnash keladi. Yer yuzidagi suvning atigi 2,5% ichimlik suvi sifatida yaroqli. 2 milliarddan ortiq odam toza ichimlik suvidan yetarlicha foydalana olmaydi. Iqlim o‘zgarishi, aholi sonining ko‘payishi va ifloslanish suv tanqisligini yanada kuchaytirmoqda. Shu sababli BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil 22-fevralda “22-mart – Butunjahon suv resurslari kuni” bayrami sifatida qabul qilingan. Bu kunning kunining asosiy maqsadi BMT tomonidan tuzilgan barqaror rivojlanish maqsadlarining 6-maqsadi (1-rasm) “Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash”ga erishish bo‘yicha sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashdir. Hamda toza ichimlik suvi muammosiga e’tibor qaratish, dunyo aholisini suv resurslaridan oqilona foydalanishga chorlash, suv tanqisligi va ekologik muammolar haqida xabardorlikni oshirish, davlatlar va tashkilotlarni suv ta’minoti masalasida hamkorlik qilishga undashdir. 2023 yilda “Butunjahon suv kuni” munosabati bilan chiqarilgan yillik ma’ruzasida aytilishicha, pandemiya sababli yuzaga kelgan hozirgi sanitar inqiroz ortida Yer aholisini

gigiyenik ehtiyojlarni qondirish uchun suv bilan ta'minlash muammosi har qachongidan dolzarb hisoblanadi



1-rasm. Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash

Ona tabiatga bo'lgan qaltis munosabatimizning salbiy ta'siri o'laroq, sayyoramizning barcha kengliklarida iqlim o'zgarishlari ro'y berayotgani sezilyapti. Shuningdek, o'rmonlar bilan qoplangan maydonlar keskin qisqarayotgani, suvlar, atmosfera va litosferaning ifloslanishi, o'simlik va hayvonlarning ayrim noyob turlari yo'qolib borayotgani hech kimga sir emas. Shaharlarni-ku qo'ya turaylik qishloq va ovullarda ham suvlarni tejab-asrashga bolgan munosabat kongildagidek, deb bo'lmaydi. Tabiiyki, respublikamiz aholisining yarmidan ko'prog'i qishloq joylarida istiqomat qiadi. Shu bois, qishloq anolisining aksariyati toza ichimlik suvini olish uchun ariq va chashmalardan foydalanadi. Agar kuzatayotgan bo'lsangiz, tog'lardan oqib keluvchi sersuv soylarda ham suv ancha kamaygan. Bunga asosiy sabab qilib tog'larda yog'in miqdori kamayishi va muz erishini tezlaganligini aytishimiz mumkin.

Hozirda zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda shuningdek aholi soni va ehtiyojlari xam tobora ko'paymoqda, ayniqsa suvga bo'lgan ehtiyoji. Natijada butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilmoqda. Eng achinarlisi ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o'tgani yo'q. Mutaxasislarning hisob kitoblariga ko'ra 2050-yilgacha suv

resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Suvga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi hisobiga esa O‘zbekistonda 2030-yilga borib suvga bo‘lgan talab 7 milliard kub metrga yetishi 2050-yilga borib esa, bu ko‘rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin.

Sayyoramizdagi ichimlik suvi zaxirasini asrash, undan oqilona foydalanish, sanoat va ishlab chiqarish jarayonini tabiatga zarar yetkazmaydigan tarzda “ekologik toza” innavatsion yangi uslub va texnologiyalarni joriy qilish va yo‘lga qo‘yish ulardan turli ta’lim usullarida foydalanish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish kabi dolzarb muammolarga insoniyat e’tiborini qaratish maqsadida har yili 22-mart “Butun jahon suv zaxirasi kuni” sifatida dunyoning deyarli barcha davlatlarida nishonlanadi va turli davlatlar va tashkilotlar seminarlar, konferensiyalar, ekologik aksiyalar o‘tkazib, aholiga suvning qadr-qimmatini haqida ma’lumot berishadi.

Shunday ekan biosferani, butun tiriklikni hayot davomiyligini saqlab qolish bugungi kunda barchamizning qo‘limizda. Zero biosferada barcha jarayonlar o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Biz insonlar bugun o‘z ehtiyojlarimizni o‘ylab qishloq xo‘jaligida pestitsidlardan betartib foydalanib uni toza suvga qo‘shilishiga sabab bo‘lyapmiz, yer yuzidagi o‘rmon o‘simliklarni nobud qilib global isish, suv bug‘lanishining ortishiga sababchi bo‘lyapmiz. Avtomobillar, sanoat, urbanizatsiya bilan esa suv, tuproq, atmosfera havosini ifloslamoqdamiz. Aynan manashu jadallashib borayotgan xayotingiz ko‘plab ekologik muammolarga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jaligi va sanoatda yangi texnologiyalarni joriy etish, suvdan oqilona foydalanish, aholining ekologik madaniyatini oshirish bilan biosferani undagi tiriklik manbai bo‘lgan suvni tejash va asrash uchun barchamiz birlashmog‘imiz zarur.

XULOSA

Muxtasar aytganda, suv tanqisligi - global muammo. Bunday sharoitda dunyoning ko‘plab mamlakatlari qatori O‘zbekistonda ham suv resurslaridan oqilona foydalanishga oid muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat suv sarfini kamaytirish imkonini beradi, balki yashil iqtisodiyotga o‘tishning muhim elementiga aylanadi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonning barqaror rivojlanishini kafolatlaydi. Qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish ortishi, demografik o‘sish va o‘rtacha harorat oshishi hisobiga bug‘lanish kuchayishi sababli Markaziy Osiyo mamlakatlarida yoz oylariga kelib suv manbalariga bo‘lgan talab ortib borishiga olib keladi.

O‘z navbatida, iqlim o‘zgarishi va suv resurslaridan irratsional foydalanish oqibatida mintaqadagi asosiy suv manbalari bo‘lgan muzliklar erishi tezlashgan. Suv tanqisligi yaqin kelajakda hayot-mamot darajasiga ko‘tarilishi ehtimoli yuqori bo‘lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari umumiy ekotizimni saqlab qolish va ehtimoliy iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish uchun bu boradagi ishlarni muofiqlashtirishi hamda o‘z strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. P.N.G‘ulomov - Inson va tabiat. - Toshkent. “O‘qituvchi”, 1990
2. I.Abdullayev, J.Xolmirzayev -Jizzax suv ombori va undan oqilona foydalanishning geografik jixatlari – Toshkent, 2020
3. 3.M.Акрамов, А.А.Рафиков - Прошлое, настоящее и будущее Арсалкого моря – Toshkent, 1990
4. <https://suvchimaktabi.uz>.– internet sayti
5. <https://nsdg.stat.uz/uz/goal/9>